

Bu shaharga kelgan dastlabki kuni dayoq Bibliyadan baland ovozda qiroat qilib turgan abgor qiyofadagi kishi va uning atrofida to'plangan kichik bir to'da e'tiborimni tortdi. Uning oyoqlari yonida yotgan itni juda xunuk va mumday qop-qora, terdan yunglari namiqib va silliqlanib turgan mahluqni daf'atan ko'rмаганимga ajablandim. Itning ko'zları xuddi oltingugurtdek sapsariq, dahshatli og'zini ocharkan, ikkita bo'ritishi ham shu rangdaligini ko'rib titrab ketdim, uning butun ko'rinishi shunday ediki, dunyodagi boshqa birorta jonzotga taqqoslashdan ojiz edim. Bu dahshatli maxluqqa uzoqroq qarab turolmadim va undan ko'z uzib, yana itning egasiga qaradim. U yirtiq libosli norg'ul bir kishi edi. Shunga qaramay uning kiyimlari yirtig'idan ko'rinib turgan badani toza edi, kambag'almonand liboslari ham odatdan tashqari tozaligi bilan ajralib turardi. Qo'lidagi Bibliya esa haqiqiy xazina; muqovasida oltin va brilliantlar jilolanardi. Voizning ovozi keskin va xotirjam, so'zleri odatdan tashqari aniq bo'lib, nutqida oddiylik va ishonch hukmron. Yana shuni ham payqadimki, uning nutqida mutlaqo kinoya yo'q. Bu Bibliyaning xotirjam tarzdagi qiroati bo'lib, har qanday fanatzmdan xoli, mabodo qanday etib so'zlarida ishonchszilik sezilsa, bu oyoqlari ostida yotib, sap-sariq ko'zlarini tinglovchilardan uzmay qarab turgan itning ta'siri edi. It va uning xo'jayini bilan bog'liq g'alati uyg'unlik meni o'ziga rom etib qo'ydi va butun e'tiborimni shu odamning shaxsiyatini bilib olishga undadi. U shaharda har kuni va'xonlik qilardi. Biroq o'z ishi bilan kechgacha shug'ullansa-da, uning kimligini bilib olish oson kechmadi. Shahar reja asosida aniq va oddiy qurilganiga qaramay, unda adashib qolish hech gap emasdi. Buning ustiga voiz o'z qarorgohidan ma'lum bir vaqtida chiqmas va umuman, uning xatti-harakatidan nima qilmoqchi ekanligini aytish qiyin edi. Ba'zida u kun bo'yil bir joyda turib olib betinim suxandonlik qilar, ba'zida esa har chorak soatda joyini o'zgartirardi. Ulkan qora it hamisha uning yonida yurib, ko'cha bo'ylab kuzatib borar va va'xonlik boshlanishi hamon og'ir gavdasi bilan yerga o'mganlardi. Uning va'zlarini tinglovchilar unchalik ko'p bo'lmas, gohida yolg'iz o'zi turganini ko'rish mumkin edi. Lekin mening bilishimcha, bunday holdan xijolat tortmasdi ham. Turgan joyidan jilmay qiroatini davom ettiraverardi. Nogoh chog'roqqina ko'cha o'rtaida turib olib, baland ovozda ibodat qila boshlaganini ko'p marta ko'rganman. Vaholanki, yaqinginasida uning va'zlaridan bexabar odamlar o'tib-qaytishayotgan katta ko'cha bor edi. Uning ortidan sezdirmay kuzatish imkonim bo'limgani sababli har doim tasodifiy uchrashuvga umid bog'ladim va bu odamning qarorgohini izlab topishga harakat qildim, biroq hech kim voizning manzilini ko'rsatib bera olmadidi. Shu bois, bir safar kun bo'yil uning ortidan yurdim. Bir necha kun shunday o'tdi. Har doim oqshomga yaqin u izesiz yo'qolib qolardi, men esa maqsadimni sezdirib qo'ymaslik uchun uning ortidan bildirmay borishga urinardim. Mana, niyoyat, bir kuni oqshom pallasini uning shahar ko'chalaridan biriga, bilishimcha, shaharning eng badavlat kishilari yashaydigan uyga kirib ketayotganini ko'rib taajjubim oshdi. Shu lahzadan e'tiboran men odatimni o'zgartirib, endi uning ortidan yashirin ravishda kuzatishni to'xtatdim. Meni ko'rsin uchun ataylab uning ro'parasida turadigan bo'lism, bu bilan unga hech ham xalaqit bermasdim, ammo it meni ko'rishi bilan irillay boshlardi. Shu tarzda bir necha hafta o'tdi. Niyoyat, yozning oxirlarida Ioann Injili to'g'risidagi sharhini tamomlagan voiz mening oldimga kelib, uyiga kuzatib qo'yishimni so'radi. Yo'l davomida og'iz ochmadi. Uyga yetganimizda borliqqa qorong'ulik cho'kkani edi. Biz kirgan katta xonada chiroq yonib turardi. Xona yo'l sathidan quyida bo'lgani sababli eshikdan kirarkanmiz, zina bo'ylab bir necha pog'ona pastga tushishga to'g'ri keldi. Xonada kitob-lar shu qadar ko'p ediki, devorlar ham ko'rinnasdi. Osmachiroq ostida archa yog'ochidan ishlangan katta va oddiy stol bo'lib, uning yonida to'q moviyrang ko'yakli bir qiz kitob mutolaasi bilan mashg'ul edi. U bizga e'tibor qilmadi. Xonaning ikkita derazasi bo'lib, ularga qalin matohdan parda utilgan, derazalardan birining tagiga odmigina to'shamma tashlab qo'yilgan, derazaga qarama-qarshi tomondagi devor tagida karavot, stol yonida esa ikkita stul turardi. Eshik yonida pechka. Yaqinlashib borarkanmiz, qiz biz tomonga qaradi va shunda men uning yuzini ko'rdim. Qiz men bilan qo'l berib ko'rishi-da, stillardan biriga taklif etdi. Bu paytda uy sohibi to'shagiga uzala tushgan, it esa uning oyoqlari yonidan joy olgandi.

Bu mening otam, bayon etdi qiz, uxmlayapti, bizni eshitmaydi. Itning nomi yo'q. Bir kun oqshom otam ibodat qilayotganda paydo bo'lib qoldi. Eshik qulflanmagandi. U panjalari bilan tutqichni bosib, eshikni o'zi ochdi-da, xonaga kirib keldi.

Men qizning ro'parasida lol bo'lib turardim, keyin pastroq ovozda otasining kim bo'lganligini so'radim.

U juda badavlat kishi edi. Ko'plab fabrikalari bo'lgan, dedi qiz ko'zlarini yerga tikib. Lekin u onamni va akalarimni tashlab chiqib ketgan. Haqiqatni xalqqa yetkazish uchun shunday qilgan.

Otag qilayotgan va'z-nasihatlar haqiqat deb o'ylaysanmi? deb so'radim.

Ha, haqiqat, javob qildi qiz, buning haqiqat ekanligini avvaldan bilardim. Shu sababli otam bilan mana shu tagxonada yashayapman. Lekin u haqiqatni bayon eta boshlashi bilan itning paydo bo'lib qolishi sira aqlimga sig'maydi.

Qiz jimib qoldi va menga shunday qaradiki, go'yo mendan nimanidir so'ramoqchi-yu, buni ovoz chiqarib aytishga jur'ati yetmayotganga o'xshardi.

Sen bu itni haydab yubor, degandim, qiz bunga javoban bosh tebratib qo'ydi.

Uning nomi yo'q va shuning uchun ham hech qayoqqa ketmaydi, dedi qiz shivirlashga yaqin ovozda. So'ng mening o'ng'aysizlanib turganimni payqab, stillardan biriga o'tirdi, men ham shunday qildim.

Nima, sen undan qo'rqa sanmi? deb so'radim.

Undan hamisha qo'rqardim, javob qildi qiz, bir yil avval meni va otamni uyga qaytarish uchun onam advokat va ukalarim bilan kelishgan edi, ular ham bu nomsiz itdan juda qo'rqb ketishdi, it bo'lsa otamning oldida turib olib, ularga qarab irilliardi. Men, hatto to'shakda yotganimda ham undan qo'rqardim, lekin endi hammasi o'zgardi, chunki sen kelding va endi men hech narsadan qo'rqi mayman. Sening kelishingni bilardim. Albatta, qiyofangni tasavvur qilolmaganman, ammo kunlardan bir kun otam bilan birga, oqshom cho'kib chiroqlar yonganda va ko'chalar tinchib qolganda shunday bo'lishini va bu oqshom payti ro'y berishini tasavvur qilardim. Bilardimki, sen kelasan. Mana shu yarmi yer ostida turgan xonada, mening to'shagimda, mana shu kitoblar oldida meni nikoh tuni bilan siylash uchun kelishingni bilardim. Biz - ayol va erkak shundaygina yonma-yon yotamiz, anavi yerda, o'z to'shagi ustida esa otam. U qorong'uda bir go'dak yanglig' uxmlaydi, ulkan qora it esa bizning baxtsiz sevgimizga posbonlik qiladi.

Bu muhabbatni qanday unutay! Deraza, torgina to'rburchakday bo'lib, go'yo bizning yalang'och tanlarimiz uzra kengliklarda uchib yurardi. Biz bir-birimizga chirmashib, bir-birimizga qo'shilib ketgancha yotar, arava sudrab o'tayotgan ot tuyoqlarining jarangdor tovushi, ko'cha shovqinlari ehtiroslarga qorishiq ovozimizga qo'shilib ketgan edi. Ba'zida uyiga qaytayotgan mast odamning qat'iyatsiz qadam tashlashi, ba'zan buzuq ayollarning bedana yurishi, gohida kolonna bo'lib o'tayotgan askarlar etigining og'ir va bir maromdag'i gursillashi eshitilardi. Biz tagxonada iliqqina qorong'ulikka burkanib, boshqa hech narsadan hadiksiraymay yotardik, burchakda xuddi o'likdek sas chiqarmay o'z to'shamasi uzra uxmlayotgan uy sohibi yonida sap-sariq xuddi ikkita sariq oy doirasidek ko'zlarini bizga qadagancha it yotar, uning ko'zlarini bizning sevgimizni qo'riqlardi.

Oltinday alangalanib va yallug'lanib kuz keldi. Keyin avvalgi yillardagi afsonaviy souvuqli qishdan farqli o'laroq, kechikkan va

This is not registered version of TotalDocConverter
 yuhsiq qiz qorishish uchun qizni tagxonadan chiqarishga ko'ndirish, teatrga olib borish
 (ulug'vor ishlar pishib yetilayotgan joyga) yoki tepalik bo'ylab to'lqinsimon ko'rinish olgan va shahar ostonasiga qadar bostirib
 kelgan nimqorong'u o'rmonga birga sayr qilishga ko'ndirishning uddasidan chiqmadim u uydan chiqmas va toki otasi o'sha
 bahaybat it bilan qaytmaguncha, archadan yasalgan stol oldidan jilmas va faqat shundan keyingina sarg'ish nur sochib turgan
 derazalar ostidagi to'shagi tomon meni yetaklardi.

Hali shahardan shilta va kirrati qor arimagan, soya joylarda bir metr qalinlikda qor uyumlari saqlanib turgan erta bahorda,
 kutilmaganda, qiz xonamga kirib keldi. Derazadan quyoshning nurlari qiyalab tushib turardi. Vaqt kechga tomon og'gan va men
 pechkaga tarasha o'tin qalayotgandim. Xuddi shu lahzada u eshik oldida paydo bo'ldi; rangi quv uchgan, qaltirab turar, paltosiz,
 egnidagi o'zining o'sha to'q ko'k ko'ylagidasovqotayotganday ko'rindardi. Faqat oyog'ida men avval ko'rмаган qizil mo'ynali
 boshmoqchasi bor edi.

Itni o'ldir, dedi qiz eshikdan ko'rinishi bilan, hali nafasini ham rostlamay turib. Uning sochlari yoyilgan, ko'zlar katta-katta
 ochilgan holatda edi. Qizning butun qiyofasi shu qadar xayoliy ediki, unga qo'limni tegdirishga ham botinmadim. Javon oldiga
 borib, revolverimni oldim.

Qachon bo'lmasin mendan shunday qilishimni so'rashingni bilardim. Shuning uchun qurol sotib olgandim. Buni qachon
 bajarishim kerak?

Hozir, paysalga solmay, javob berdi u. Otam ham undan qo'rqadi. U itdan azaldan qo'rqarkan, buni endi angladim.
 Men revolverimni ko'zdan kechirdim-da, paltomni kiydim.

Ular tagxonada, ma'lum qildi qiz nigohini yerga tikkanicha. Otam o'zining to'shagida qimirlashga jur'at qilolmay yotibdi. Chunki
 itdan qo'rqadi. Hatto ibodat ham qilolmaydi, it bo'lsa eshik oldida yotib olgan.

Biz daryo tomonga endik, tosh ko'priordan o'tdik. Osmon xuddi yong'in paytidagiday qo'ng'ir-qizil rangda. Quyosh endigina bota
 boshlagan. Shahar odatdagidan gavjum, ko'chalarda odamlar va mashinalar. Ular go'yoki qandaydir qonli dengiz qobig'i bo'ylab
 borayotganday, chunki devorlar va derazalarda botayotgan quyosh shafaqlari hali-hamon akslanib turardi. Biz olomon ichiga
 o'zimizni urdir. Harakat borgan sari kuchayardi. Qator bo'lib o'tayotgan mashinalar, silkinib turgan, zulmkor sutrang shisha ko'zli
 bahaybat mahluqlarga o'xshash omnibuslar, qo'llari bilan ishorat qilib turgan kulrang shlyomli politsiyachilar oldidan
 yugurgilagancha o'tib borardik. Men shunchalik qat'iyat bilan olg'a intillardimki, qiz ancha uzoqda qolib ketdi. Nihoyat, paltoning
 tugmalari yechib qo'yilganiga qaramay, quyuqlashib borayotgan siyohrang oqshom chog'iда hansiragancha yuqoriga, kerakli
 ko'cha tomonga o'tib olgandim. Lekin juda kechikkan edim. O'sha lahzada revolverni mahkam ushlab, eshikni oyog'im bilan bir
 tepib ochgancha, chaqqonlik bilan yerto'laga tusharkanman, o'zini derazaga otib uni sindirgancha ko'chaga sakrayotgan
 mahluqning bahaybat soyasini ko'rib qoldim.

Yerda esa it tanib bo'lmas darajada burdalab tashlagan uy sohibining oppoq gavdasi qon halqobida yotardi.

Men butun vujudim bilan titrab, kitoblarga ko'milgancha devorga suyanib turarkanman, mashina signali eshitildi. Zambil ko'targan
 odamlar kirib kelishdi. Marhumning jasadi oldida turgan vrach menga g'ira-shira ko'rindardi. Rangi uchgan, tish-tirnog'igacha
 qurollangan politsiyachilar ham jasad oldida turishardi. Atrof to'la odam. Baralla ovoz bilan qizni chorlagancha o'zimni shahar
 bag'riga otdim. Ko'priordan o'tib uyimga yetib oldim. Lekin qiz u yerda yo'q edi. Men jon achchig'ida, uyqusiz, yeyish-ichishni,
 dam olishni unutib, uni izladim. Politsiya ham oyoqqa turgan edi. Bahaybat maxluqsimon it hammaning yuragini vahimaga
 to'lirigan. Qizni qidirayotganlarga yordam sifatida safarbar etilgan mahalliy garnizon askarlari zanjir halqalariday tizilishib,
 atrofdagi o'rmonning titi-pitisini chiqarishdi. Sarg'ish iflos suvli daryoda qayiqlar suzar, qo'lida uzun xoda tutgan kishilar daryo
 tubini titkilashardi. Shahar va uning atrofida bahorning iliq yomg'iri to'xtovsiz yog'ib turgani sababli qidiruv ishimi toshkonlarning
 g'orlarida olib borishardi. Ular yonib turgan mash'alalarni bosh uzra ko'tarib, qizning nomini aytib baland ovozda chaqirishardi.
 Uni kanalizatsiya tunellaridan, hatto mahalliy kafedral cherkov tomlaridan ham izlashdi. Lekin u suv ostiga cho'kkanday dom-
 daraksiz ketgan, it ham g'oyib bo'lgandi.

Oradan uch kun o'tib, tunda uyimga qaytdim-da, horigan, bo'shashgan bir holatda kiyimlarimni ham yechmasdan o'zimni
 karavotga tashlarkanman, xuddi shu lahzada pastda, ko'cha tomonda, qadam tovushlari eshitildi. Yugurgancha deraza oldiga
 bordim, uni ochib yubordim va derazadan boshimni chiqarib qaradim. Yarim tungacha quygan yomg'irdan ho'l bo'lgan yo'l qora
 tasmaga o'xshardi. Ho'l asfalta ko'cha chiroqlarining nuri notejis bir tarzda oltin rangda jimirlardi, ko'chadan qator daraxtlar
 bo'ylab, egnida qora ko'ylak, oyog'ida qizil boshmoqchasi, uzun sochingin tolalari ko'kimtir ranglarga yo'g'rilib odimlardi qiz.
 Uning yonida esa tunday qop-qora, sariq dumaloq, yaltiroq ko'zli o'sha it go'yo begunoh qo'zichoqdek yengil va sharpasiz
 yugurgilab kelardi.